

TIL MILLAT KO'ZGUSI VA XALQ RUHIYATINING ASOSIDIR

Alfraganus universiteti ijtimoiy fanlar kafedrasi v.b.dotsenti

Sherboboyev M.A.

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat tili va uning maqomi, jamiyat hayotidagi o'rni hamda davlat qonunchiligidagi belgilangan me'yoriy xujjalarda tilning qonuniy maqomi haqida so'z yuritilgan. Undan tashqari millat ruhiyatini kuchaytirishda tilning o'mi haqida va ijtimoiy va rasmiy doiralarda tilning qo'llanilishining ahamiyati o'rganildi.

Tayanch iboralar: til, millat, dvlat, ruhiyat, davlat tili, qonun, izohli lug'at, ijtimoiy munosabatlar.

Har bir millatning quvvati uning tili va jamiyat hayotidagi boshqa ong shakllari bilan bog'liq holatdir. Shu boisdan ham inson jamiyatda yasharkan albatta o'z tilini yaxshi bilishi va uni hurmat qilishi lozim. Tilni hurmat qilish undan undan oqilona foydalanish hamda boshqa tillarni hurmat qilgan holda faqat o'z tilida suhbatlashish, boshqa tillar bilan qorishtirmaslik bilan amalga oshiriladi. Tillar xususiyatidan kelib chiqib unga quydagicha tasnif berilgan. "kishilar o'rtasida, jamiyatda aloqa va o'zaro fikr almashishning muhim vositasi; tilshunoslikning asosiy o'rganish ob'ekti; borlikdagi narsa, hodisalarga va ularni ongda aks ettirishga xizmat qiladigan, nutq a'zolari tomonidan aslidagiday tiklanadigan va muayyan jamiyat doirasida hammaga ma'lum va maqbul bo'lgan tovush belgilari majmui, shuningdek, ushbu belgilarning fikr ifodalash jarayonida birga qo'shilishi, birikishi haqidagi qoidalar to'plami." [1.378] Shundan kelib chiqadiki til har bir millatning ayni bir hudutda yashashi va ijtimoiy munosabatlarida o'zaro muloqot vositasi sifatida shakllanishi hamda shu milliy birlikni ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan davlat tiliga maqom berish yoki uni mavqeini qonun bilan mustahkamlash lozim. 1989-yil 21-oktyar kuni O'zbekiston tarixida o'chmas iz qoldirgan voqeа, o'zbek millati hayotida zarhal harflar bilan bitilgan voqeа sodir bo'ldi. Bu kunda

“Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilindi. Bu qonun uzoq yillar domida orzu qilingan hamda amalga oshmagan niyatlar jamlanmasi edi. U Mustaqilligimiz sari qo‘yilgan eng dadil qadam bo‘lib xizmat qildi. Bu qonunning qabul qilinishi oson kechmagan. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo‘lidagi muhim qadamlaridan biri bo‘lgan edi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimiz ruhini ko‘tardi. O‘zbek tilining xalqaro miqyosda obro‘sini oshirdi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi. “Davlat tili haqida”gi qonun ona tilimizning bor go‘zalligi va jozibasini to‘la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid ensiklopediya va lug‘atlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz namunalari, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo‘llaniladigan so‘zlarni o‘z ichiga olgan besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” yaratildi. “Davlat tili haqida”gi qonunning 8-moddasida “Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi”.[2] Ushbu moddaga muvofiq bugun barcha davlat idoralari o‘zbek tilida ish yuritishi lozim. Bu qonun qabul qilinganiga 35 yil bo‘lishiga qaramasdan haligacha ayrim davlat idoralari boshqa tillarda ishlar yuritilmoqda bu esa davlat tiliga nisbatan hurmatsizlik hisoblanadi. Til insonning birlamchi ehtiyoji, anglash, bilish, so‘zlash, aloqa-munosabat vositasi bo‘lgani bois hamisha jamiyat ravnaqining asosiy mezonlaridan biri bo‘lib kelgan. Jumladan, o‘zbek tili o‘zbek millatining uzoq tarixiy ildizlariga, o‘z siyosiy-huquqiy asoslariga ega muqaddas qadriyati, ulkan ma’naviy yutug‘idir. Bugungi kunga qadar shonli va sharafli yo‘llarni bosib, keskin va shiddatli to‘fonlarni yengib kelayotgan milliy tilimiz davlat maqomida yanada ulug‘vor va ustuvorligini namoyon qilib kelmoqda. Chunki tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demakdir. Til – millat

qiyo fasining bir bo‘lagi, aynan til tufayli xalq va elatlarning madaniyati, urf-odatlari saqlanib qoladi, sayyoramizda yashayotgan xalqlarning o‘tmishi va madaniyati hurmat qilinadi. Yuqoridagilarni inobatga olib tilni hurmat qilish borasida “Davlat tili haqida”gi qonunning 24-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o‘zaro muomala, tarbiya va ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to‘sinqlik qiluvchi shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgar bo‘ladilar”[2]deb belgilab qo‘yilgan bu esa davlatda tilning o‘rni va ahamiyatini oshiradi qonun doirasida davlat tili va boshqa tillarning hurmat qilinishini hamda tilning mavqeyini belgilashni ta’minlaydi. Shu jumladan davlat tilining ham maqomini qonuniy asosda belgilanishi millat ruhini oshishiga va milliy g’ururni shakllanishiga sababchi bo‘ladi hamda ma’naviy merosning saqlanishiga, kelajak-avlodga yetkazilishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ ЭНЦИКЛОПЕДИЯСИ.Т Ҳарфи.** Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти ТОШКЕНТ. 2020.
2. <https://lex.uz/ru/docs/-121051>
3. Tojiyev Y., Hasanova N., Tojimatov., Yo‘ldosheva O. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. - Toshkent. 1994.
4. Kurbanov, C. M., Shaniyazov, S. S., Nurfayziev, J. B., & Sherboboev, M. A. U. (2020). GEOPOLITICAL AND ECONOMIC INTERESTS OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE SECOND HALF OF THE 19th CENTURY IN CENTRAL ASIA. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(7), 8521-8546.
5. Sherboboev, M. A. O. (2021). CRITICAL RATIONALISM AS A METHODOLOGICAL MEANS OF SCIENTIFIC KNOWLEDGE. Academic research in educational sciences, 2(8), 89-97.
6. Azimmurod o‘g‘li, S. M. (2023). KARL POPPERNING ILMIY BILISH MANTIG ‘I VA YANGI O ‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY BILISHNING O ‘ZIGA XOSLIGI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 447-453.